

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI SIFAT SO'Z TURKUMINING QIYOSIY TAHLILI

Tyan Natalya Viktorovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti o’qituvchisi,

Norboyev Iskandar Maxamadi o’g’li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillarida sifat so’z turkimining qiyosiy tahlili misollar, soha mutaxasislari fikrlari va iqtiboslar orqali ilmiy tahlil qilingan va yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: tarkum, nisbiy, element, the group of lexem-semantic; semantic classification; semantic lexeme-adjectives of human; psevdoparticip;

Sifat narsa buyumning rangi (oq, ko’k, sariq), hajmi (katta-kichik), shakli (yumshoq, yumaloq, uzunchoq), mazzasi (shirin, achchiq), xususiyati (yaxshi, yomon, qo’pol), xislati (chaqqon, mohir), o’rin yoki paytga munosabati (yozgi, qishgi) kabilarni ifodalaydi. Shaxs va narsa buyumlarning belgisini, xususiyatini, rangini, hajmini, mazzasini, turini bildiradigan so’zlar turkumi sifat deb ataladi. Sifat o’zi aniqlayotgan ot oldidan kelib qanday?, qanaqa?, qaysi? kabi so’roqlarga javob bo’ladi. Sifatlar ma’nosи va ayrim grammatik belgisiga ko’ra asliy va nisbiy sifatlarga ajratiladi. Belgini bevosita anglatib uni darajalab ko’rsata oladigan sifatlar asliy sifatlar hisoblanadi. Misol uchun: baland, yaxshi, katta. Nisbiy buyum belgisini o’rin yoki payt tushunchasiga nisbatlash, mo’ljallash, boshqa narsaga o’xshatish kabi ma’nolar orqali ifodalanadigan sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi. Nisbiy sifat belgini darajalab ko’rsatmaydi.

Inson o’z intellektual salohiyatining rivojlanishi tarixida sanamoqni o’rgangandan keyin qiyoslamoqni ham yaxshi o’zlashtira oldi [3; 41]. Qiyoslash



madaniyat bilan, madaniyat esa qiyoslamoq bilan hamohang, chunki qiyoslash keng ma'noda umulashtirish va farqlamoq demakdir. Taniqli olim va yozuvchi O.Mandelbshtam o'zining "Dante bilan suhbatda" nomli asarida: "Men qiyoslayapman, demak men tirkman [2; 93]" degan edi. M.Fukoning ta'riflashicha, qiyoslash – "aniqlashni taqozo qiladigan, tafakkurni boyitadigan, bilish va anglashni charxlaydigan eng universal, eng oddiy, shu bilan birga eng murakkab elementdir"[4; 101].

Tillarni qiyosiy o'rganish orqali turli lisoniy va nolisoniy qonuniyatlar yuzaga chiqadi. Shuning uchun nemis va o'zbek tillaridagi sifat so'z turkumiga oid so'zlarning morfologik, sintaktik va semantik, kognitiv-kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [1; 17].

Nemis tilida ham sifatlar o'zbek tilidagi kabi biron bir fe'l bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Masalan, Von Tag zu Tag wird er bleich und bleicher. – Uning rangi kundan kunga dokadek oqarib borar edi. Jeder üpte fleißig eine Kolter. – Har bir odam tirishqoqlik bilan odayalo to'qishni mashq qilardi. Es ist sonnig – Quyoshli. Das Kafee war völlig leer – Kafe bo'm-bo'sh edi. Ushbu sifatlar fe'lga tobe va gapda fe'l-kesim (bo'lagi) kengaytiruvchisi vazifasini bajaradi¹

O'zbek tilida nisbiy sifatlar o'z xususiyatiga ega. Ular intensiv formada qo'llanilmaydi va qo'shimchalar olmaydi.

Nemis tilida sifatlar otlarning rodini ifodalab undan oldin qo'llaniladi, masalan: Schöner Tag, schwarzer Tisch, weisser Wagen, kleines Kind, schöne Blume. Mazkur misollarda sifatlar otning rodini, artiklini aniqlab kelmoqda. Turkiy tillar qatori o'zbek tilida ham rod kategoriyasi mavjud emasligi sababli, sifatlarning yuqoridagi kabi xususiyati kuzatilmaydi.

Nemis tilida sifatlar yasalishi(shakli)ga ko'ra uchga bo'linadi:

- 1). Oddiy sifatlar (masalan, gut – yaxshi, schön – chiroyli, weiß – oq, schwarz – qora, rot – qizil va hakozo.
- 2). Yasama sifatlar (masalan, froh – xursand, gestrige – kechagi, eiserlich –

¹ Немис тили фундаментал грамматикаси (Grundzüge einer deutschen Grammatik)





Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st February, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

temirli va hakozo.

3). Qo'shma sifatlar (masalan, schneeweiss – qordek oq, zweistockig – ikki qavatli, vielmalig – ko'p marotaba va hokazo) [8; 79].

Nemis tilida otlashgan sifatlar ko'p uchraydi, masalan: Ein rosafarbiges Kind – qizilgina yuzli bola; eine cremefarbene Tasse – malla rangli chashka; Eine rosaarte Krawatte – qizil rang galstuk, ein olivgrüner Rock – zaytun bargidek yashil yubka. Ein Kleid in Rosa – atirgulli kuylak.

O'zbek tilida sifatlarning quyidagi turlari mavjud:

1). Oddiy sifatlar: oq, qora.

2). Yasama sifatlar: kechagi, burungi.

3). Qo'shma sifatlar: binafsha rang, to'q qizil, oq – sariq.

4). Juft sifatlar: uzun – uzun, katta – katta, baland – baland [5; 47].

Hozirgi zamonda nemis tilida sifatlar quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi:

-ig – bu qo'shimcha orqali sifatlar ot va ravishdan yasaladi: Macht – mächtig, Sonne – sonnig, bald – baldig;

4

-lich – bu qo'shimcha yordamida sifatlar fe'l va otdan yasaladi, masalan, lichen – lächerlich, weib – weiblich, Monat – monatlich;

-isch – ushbu qo'shimcha yordamida otdan sifat yasaladi, masalan, Usbek – usbekisch, Tier – tierisch;

-bar – ushbu qo'shimcha orqali fe'ldan, otdan sifat yasalishi mumkin: nutzen – nutzbar, hören –hörbar, essen – eßbar;

-haft – yordamida otdan sifat yasalishi mumkin: Held – heldenhaft, Meister – meisterhaft;

-sam – yordamida fe'ldan, otdan sifat yasalishi mumkin. Schweigen – schweigsam, Sorge.– sorgsam, lange – langsam;

-los – yordamida otdan sifat yasaladi: Arbeit – arbeitlos, Hilfe – hilflos, Geld – geldlos.²

Ko'pchilik asliy sifatlar nemis tilida to'laligicha turlanish

² <https://pshedu.jdpu.uz/index.php/ruslit/article/download/2307/1558/5782>

xususiyatiga ega. Ular turlanadi, darajalariga ega va gapda aniqlovchi hamda ot kesim vazifasida qo'llanishi mumkin. Nisbiy sifatlar otlardan, fe'llardan, ravishlardan tashkil topadi, ya'ni:

- 1). Bir jismni biron bir jismdan olinganligini Gold, Seide, Eisen;
- 2). O'rinn joy va vaqt alomati; dortlich - u yerlik, gestrig - kechagi, täglich - kunlik, monatlich - oylik;
- 3). Boshqa bir tushuncha, alomat belgisi bilan: kindlich – bolalarcha, mühsam – charchagan, regnerisch – yomg'irli.

Hozirgi zamon nemis tilida qo'shma sifatlar yasalishi sermabsul [8; 21], masalan: amethysblau, rubinrot, smaradgrün, maisgelb, taubengrau, grasgrün, mandelbraun, olivgrün, weinrot, kafeebbraun, frühlingsgrün, schneeweiß, feuerrrot. Ba'zan qo'shma sifatlarning yasalishi murakkab, masalan: Billardgrün, wollweiß, naturschwarz, tiefblau, hellrot, dunkelgrün.

Nemis tilida nisbiy sifatlar o'zbek tilidagiga nisbatan kam tarqalgan, chunki nemis tili uchun so'z yasash produktiv til hodisasi hisoblanadi va shu sababli mazkur tilda yasama va qo'shma sifatlar ko'p uchraydi [6; 97].

Demak, nemis va o'zbek tillarida sifatlar yasalishi va gapdag'i vazifalariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, nemis tilida sifatlar old qo'shimchalar (prefikslar) yordamida ham yasaladi, o'zbek tili uchun bu xususiyat shartli ravishda begona, chunki o'zbek tilidagi ko'pgina prefiksli sifatlar o'zlashtirma, ya'ni fors, tojik tillaridan kirib kelgan. Nemis tilida sifatlar partitsipli konstruktsiyalarni ham prefiks hamda suffiks yordamida yasaydi. O'zbek tilida esa bunday konstruktsiyali sifatlar mavjud emas.³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agricola E .Wörter und Wendungen. Leipzig, VEB Bibliographisches Institut, 1968.
2. Duden. Deutsches Universalwörterbuch.Mannheim /Wien/ Zürich, 1989

³ [file:///C:/Users/user/Downloads/2307-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%D0%BA%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%BA-5782-1-10-20210707%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/2307-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%D0%BA%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%BA-5782-1-10-20210707%20(2).pdf)

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st February, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

3. Едличко М. И., Рубинштейн , Deutsche Redensarten. Фразеологических выражений в немецком языке.Москва. Учпедгиз, 1953.
4. Iskos A.,Lenkova A. Lesestoffe zur deutschen Lexikologie. Leningrad, Procvischinia, 1975.
5. Klappenbach R. Steinitz W. Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. Bd 6. Berlin, Akademie, 1982.
6. Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва тақорорий сўзлар монографияси. Тошкент.Фанлар Академияси, 1963.